XALQ DEPUTATLARI PISKENT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 5-sentabr VI-90-93-10-142-K/24 Piskent tumani

Piskent tumani hududidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi qonuni va Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan hamda tuman hokimining 2024-yil 30-maydagi 106-10-142-F/24-sonli farmoyishiga asosan, Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Piskent tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniga ko‘ra tumandagi shahar va qishloqlarning umumiy perimetri 537234.2 metr umumiy maydoni 77580.93 gektar ekanligi aniqlandi.

Jumladan:

Piskent shahri umumiy perimetri 21975.7 metr, umumiy maydoni 783.35gektar;

Said shaharchasi umumiy perimetri 10071.8 metr, umumiy maydoni 288.19 gektar;

Murodali shaharchasi umumiy perimetri 13054.7 metr, umumiy maydoni 291.28 gektar;

Koriz qishlog‘iumumiy perimetri 214828.5 metr, umumiy maydoni 42688.44 gektar;

Murodali qishlog‘iumumiy perimetri 53513.1 metr, umumiy maydoni 4593.48 gektar;

Said qishlog‘iumumiy perimetri 42928.0 metr, umumiy maydoni 3639.23 gektar;

Oqtepa qishlog‘iumumiy perimetri 51404.09 metr, umumiy maydoni 7557.16 gektar;

Do‘ngqo‘rg‘on qishlog‘iumumiy perimetri 45278,9 metr, umumiy maydoni 6193.58 gektar;

Kelovchi qishlog‘iumumiy perimetri 81642.3 metr, umumiy maydoni 11546.22 gektar;

Piskent tumani ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilashda shahar va qishloqlar chegaralari ajratib ko‘rsatilgan holda tavsiflandi. Chegaralar chizig‘ining yozuvli matni tavsifida joyning tegishli topografik elementlari bilan bog‘lanib, chegara nuqtalari o‘rtasidagi masofasi va chegara chizig‘ining qutb yo‘nalishlari aks ettirilgan. Shuningdek, chegara chizig‘ining burilish nuqtalari koordinatalari ko‘rsatib o‘tilgan.

Kun tartibidagi masala yuzasidan Davlat kadastrlar palatasining Piskent tumani filiali rahbarining axborotini tinglab, taqdim etilgan ma’lumotlar, fikr va mulohazalarini hamda taklif va tavsiyalarini atroflicha o‘rganib chiqib, “O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunning 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning tegishli moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi, **qaror qiladi:**

1.Davlat kadastrlari palatasining tumani filiali rahbari A.Aliyevning Piskent tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash to‘g‘risidagi axboroti hamda Respublika aerogeodeziya markazi tomonidan Piskent tumanidagi shahar va qishloqlarning chegaralarini belgilash bo‘yicha bajarilgan ishlarning yakuniy natijalarini ko‘rib chiqish yuzasidan tuman hokimligida tuzilgan ishchi guruh tarkibining 2024-yil 5-avgustidagi 8/25-sonli yig‘ilish bayoni ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2.Piskent tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlari yakuniy natijalari to‘g‘risidagi ma’lumot 1-ilovaga hamda ma’muriy-hududiy birliklarning chegaralarini belgilash bo‘yicha kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3.Tuman hokimligi matbuot xizmati mazkur qarorni tuman hokimligining rasmiy veb-saytida yoritilishini ta’minlasin.

4.Ushbu qarorning tasdig‘i Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashidan so‘ralsin.

5.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining “Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya bo‘yicha doimiy komissiya”si (M.Avazov) hamda tuman hokimining barcha o‘rinbosarlari zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi KARIMOV XOLMUROD ABDURAXMONOVICH

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2024-yil 5-sentabrdagi
VI-90-93-10-142-K/24 -son qaroriga
1-ilova

1-ILOVA

Piskent tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash ishlarining yakuniy natijalari to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

T/r	Ma’muriy-hududiy birliklarning nomi	Umumiy perimetr (metr)	Umumiy maydoni (gektar)
1	Piskent shahri	21975.7	783.35
2	Said shaharchasi	10071.8	288.19
3	Murodali shaharchasi	13054.7	291.28
4	Koriz qishlog‘i	214828.5	42688.44
5	Murodali qishlog‘i	53513.1	4593.48
6	Said qishlog‘i	42928.0	3639.23
7	Oqtepa qishlog‘i	51404.09	7557.16
8	Do‘ngqo‘rg‘on qishlog‘i	45278.9	6193.58
9	Kelovchi qishlog‘i	81642.3	11546.22
	Jami	**537234.2**	**77580.93**

Xalq deputatlari Piskent tumani
Kengashining
2024-yil 5-sentabrdagi
VI-90-93-10-142-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Piskent tumanidagi ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash chegaralarining kartografik chizmasi.

